

XOTIRA MATNLARINING KOGNITIV VA LINGVOMADANIY BELGILARI

Mardonjon Xolmatov Sherali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi(PhD)

Annotatsiya – Ushbu maqolada til va lingvokulturologiya tadqiqi, uning til mva xalq o‘rtasidagi tutgan o‘rni, madaniyatning xalqqa, milliylikka munosabati va o‘zaro ta’siri ilmiy tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar – Lingvokulturologiya, til, madaniyat, xalq, mentalitet, semantika, ottenka, integral belgi, differentsial belgi, oppozitsiya, transformatsiya, komponent, metod, shakl, munosabat, lingvokulturema.

Abstract - This article examines the study of language and linguoculturology, its role between language and people, the relationship of culture to the people, nationality and interaction.

Keywords - Linguoculturology, language, culture, people, mentality, semantics, ottenka, integral sign, differential sign, opposition, transformation, component, method, form, attitude, lingvokulturema.

Аннотация: в данной статье исследуются вопросы изучения языка и лингвокультурологии, ее роли между языком и людьми, отношения культуры к людям, национальности и взаимодействия.

Ключевые слова: лингвокультурология, язык, культура, люди, менталитет, семантика, оттенка, интегральный знак, дифференциальный знак, противопоставление, трансформация, компонент, метод, форма, установка, лингвокультура.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikning etakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya XX asrning so‘nggi choragida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “lingvokulturologiya” termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.[1.288]

Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar.[2.3] Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.[3.16]

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.[4.208]

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi etakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”. [5.222] G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan.

Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”. [6.128] Lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to‘xtamga kelingan bo‘lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o‘rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o‘rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishini ta’kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozim ekanligini ta’kidlaydi.[7]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi.[8] Mazkur o‘quv qo‘llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan.[8.208]

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda asosan rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Solievaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.[9.25]

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.[10.25]

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. SHunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”. [10.16]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz ishni xotira matnlarining kognitiv va lingvomadaniy belgilari ochishgan boshlasak, xotira matnlari kim tomonidan yozilganiga qarab turli xil lingvomadaniy belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, «*To‘ychi aka bilan qilgan suhbatlari, uning ijrochilik mahoratidan ancha gapirdi. Gapni toshkentlik mashhur Saydahmat askiyaga uladi. O‘z davrining mashhur so‘zamoli bo‘lgan bu odamni G‘afur aka ajib bir zavq bilan gapirardi*».[11.33] Ushbu misolda *ulamoq* fe’li etalon ma’nosini yo‘qotib konnotativ ma’noga ya’ni hosila ma’noga o‘tgan va shu orqali metaforani yuzaga chiqargan. Bundan tashqari xuddi shu xotira matnida *ulamoq* fe’li yana quyidagi ko‘rinishda kelgan: «*Oltmish yoshga hamma ham kirishi mumkin. Lekin shu yetuk yoshga yetib kelguncha umrini choyxonada yonboshlab o‘tkazganlar bor,*

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

mudrab umrini sovurganlar bor. Ammo Asqad oltmish yoshni qizg’in ijob daqiqalari, izlanish, tunni tonglarga ulash bilan o’tkazdi».[11.127] Ushbu misolda ham *ulamoq* fe’lini hosila ma’nosini ko’rishimiz mumkin. «*Yorqin umidlar bilan yo’lga otlangan hamrohdaring qani, deb o’zimdanda o’zim so’rayman. Ularning ko’pi endi yo’q. Manzilga yetolmay, juda tiniq, juda shaffof umidlarini o’zlari bilan olib yo’qlik deb atalmish mangulikka ketdilar*».[11.182] Ushbu xotira matnidanda olingan parchada *shaffof umid* va *tiniq umid* so’z birikmalari denotativ ma’nosi yo’qolib, konnotativ ya’ni hosila ma’noni yuzaga chiqargan va ushbu xususiyati orqali metaforik ko’chimni yuzaga chiqargan. Yuqoridagi misollarda turg’un va individual metaforalarga quyidagicha kiritishimiz mumkin. Masalan birinchi misolda qo’llanilgan *askiyaga ulamoq* birikmasi yozuvchi nutqi uchun turg’unidir. Ikkinchi misoldagi *tunni tonglarga ulash* birikmasi esa turg’un holdagi metaforaga misol bo’la oladi. Chunki *tunni tonglarga ulash* birikmasi ushbu matn tarkibi kirgungacha nutqda tayyor birlik sifatida mavjud bo’lgan. Uchinchi misolda keltirilgan *shaffof umid* va *tiniq umid* yozuvchi nutqi uchun individual bo’lib, individual-muallif metaforasiga misol bo’la oladi deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, Individual-muallif metaforalariga O. Sharafiddinovning “Domlalar” nomli asaridan olingan quyidagi mikromatndagi metaforalarni misol qilib ko’rsatish mumkin: «*Noraso dunyoning bu nomardligini ko’ring – bir qaraganda har jihatdan to’kis, yeb-ichishda kam-ko’shti yo’q, baxtiyor bo’lishiga hech narsa xalaqit bermaydigan odamning boshida shuncha g’am, shuncha hasrat, shuncha dard!* ».[12.162] Ushbu parchadagi *noraso dunyo* birikmasi yozuvchi nutqiga xos metaforik individuallikni vujudga keltirgan. Yuqoridagi misolda dunyo so’ziga norasolik xususiyatini yuklash orqali ijodkor konnotatsiyani kognitiv idrik etishga undagan va madaniy belgi ko’rsatgichiga aylantirgan. Lingvokulturalogiya metaforaning aynana shu xususiyati o’rganadi.

“Metafora hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining faoli sanalib, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma’no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o’zaro o’xshash kelishiga asoslanadi”. Prof. M.Mirtojiyevning qayd qilishicha, buni differensial-semantik metod bo’yicha tahlil etib ko’rilganda yaqqol tasavvur etish mumkin. Masalan, *ulamoq* fe’li “uchlarini biriktirib bog’lamoq” leksik ma’nosi – sememasiga ega. U yana “uchiga qo’shib uzaytirmoq” hosila ma’no – sememani orttirgan. Ular bildirgan harakat o’rtasida o’xshashlik bor. Ya’ni hosila ma’no yuzaga kelishi metafora hisoblanadi.

Metaforalarning mazmun jihati, shuningdek, ularga biriktirilgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilishning manbasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ham obrazli-motivlashgan soʻzlar (metaforalar) madaniy belgilarning koʻrsatkichiga aylanadi. Lingvokulturologiyani metaforalarning aynan mana shu jihati qiziqtiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda oʻxshatishlarning lingvokulturologik hamda etnolingvistik jihatlariga katta eʼtibor berilmoqda. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova oʻxshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini taʼkidlab, bu fikrini rus, belorus va qirgʻiz tilida qoʻllanuvchi oʻxshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. Uning fikriga koʻra, *glaza blestyauye, kak Issyk-Kul, stroynyy, kak maral, silnyy, kak Manas* kabi qurilmalar qirgʻiz xalqining milliy dunyoqarashini aks ettiradi.

Biz ishni xotira matnlaridagi oʻxshatishlarni kognitiv va lingvomadaniy belgilari ochishga urunib koʻrsak. Quydagi matndagi oʻxshatishlarga ahamiyat bersak: *Yaxshilikni bilmaydigan bir yozuvchi toʻgʻrisida shunday degan edi: «Bu odam toʻnkarilib qolgan qoʻngʻizga oʻxshaydi, oʻnglab qoʻyadiganlarning qoʻlini sasitadi». Jurnal yoki gazetani oʻz saviyasiga moslab olgan redaktorlar toʻgʻrisida bunday degandi: «Redaksiya eshigini oʻz boʻyiga moslab qurib olgan, katta yozuvchilar bu eshikka sigʻmaydi». Talantsiz yozuvchilar toʻgʻrisida: «Bu odam adabiyotga eshiqsan emas, oʻgʻri mushukka oʻxshab tuynukdan tushgan», «Manavinisi koʻchadan oʻtib ketaturib, oyogʻi toyib soyuz eshigining ichkarisiga yiqilgan. Haligacha chiqib ketolmaydi», «Oʻzi yozolmaydi, adabiyotda men ham borman, deb majlislarda ovoz chiqazib turadi», derdi. Adabiyotga ha deb aralashaveradigan baʼzi bir lavozimli kishilar toʻgʻrisida kuyib gapirardi. «Nima uchun jarrohga bemorning u yeridan emas, bu yeridan kes, demaydi. Nima uchun uchuvchiga samolyotning u murvatini emas, bu murvatini bura, demaydi, nima uchun arqondagi darvozga, manavinaqa yurish kerak, deb koʻrsatmaydi. Adabiyotni oson ish deb oʻylasa kerak, ha deb ana undoq yoz, mana bundoq yoz, deb oʻrgataveradi».[11] Ushbu parchada Abdulla Qahhor tiliga xos lingvomadaniy oʻxshatishlar qoʻllanilgan. Matnda etalon sifatida qoʻngiz va mushuk soʻzlari oilgan boʻlib, insoning xarakteri va xatti-harakati bilan bogʻliq boʻlgan oʻxshatishlar sirasiga mansubdir. Maʼlumki, oʻxshatish qurilmalari toʻrt komponentdan: oʻxshatish subyekti, oʻxshatish etaloni, oʻxshatish asosi va oʻxshatish vositasidan tashkil topadi.*

Xotira matnlar kim tomonidan yozilishiga koʻra ham farq qilinadi. Masalan, Hamid Olimjon haqida yozilgan estaliklardan bir parchani keltirsak:

«Shunday bir hodisa yodimdan sira koʻtarilmaydi. Vatan urushi yillarining boshlarida men bir asarni sahnalashtirdim. Hamid Olimjon teatrga kelib spektaklni oxirigacha koʻrdi, keyin kabinetga kirdik. Har galgiday, oʻz fikrlarnii aytdi.

— Aminjon aka, — dedi shoir, — asar baliqchilar haqida emasmi-a?

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

— Yo‘q, yo‘q, nima, biron kishi...

— To‘rsiz xalq ham bo‘lar ekan-da.

Men hayron, atrofdagilar ham hayron... Biron ta artist xato qilganini, biron so‘zni noto‘g‘ri aytganini payqadik.

— *Haligi komandir rolini o‘ynayotgan artistingiz «to‘rli xalq farzandlari» dedi, men «to‘rli xalq bo‘lsa, to‘rsizi ham bormikan», deb o‘ylabman. Hurmatli artistimiz «turli xalq farzandlari» deyish o‘rniga, «to‘rli xalq farzandlari» deb yurar ekan, men e’tibor bermay o‘tkazib yuborar ekanman. Darhaqiqat, «u» o‘rniga «o» ishlatib gapirilsa, ma’no buzilishi muqarrarligiga kamhafsasalik bilan qaragan ekanmiz».*[13.88] Ushbu parcha O‘zbekiston xalq artisti Amin Turdiyevning Hamid Olimjon haqida yozgan xotiralaridan olingan. Parchadan shuni anglashimiz mumkinki, artisti nutqida o‘ziga xos lingvomadaniy belgilar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, *to‘rli xalq farzandlari* birikmasini olaylik, ushbu birikma aslida *turli xalq farzandlari* shaklida aytilishi lozim edi. Ammo to‘rli va turli so‘zlari o‘zaro chalkashlik holatda qo‘llab uslubiy xatolikka yo‘l qo‘ygan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Xotira matnlar kim qanday yozishiga qarab, qaysi kasb egasi va qanday millat vakillari yozishlariga qarab turli xil lingvomadaniy belgilarga ega bo‘ladi.

XULOSA

Ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida til va madaniyat o‘zaro munosabati tomoman isbotlangan hamda eng muhimi, til va madaniyat deyarli bitta birlikni aks ettirishi tavsiflab berilgan. Tilda madaniy qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. Bundan tashqari, til madaniyati va dunyoning milliy manzarasi mujassamlashadi. Mazkur maqolada xotira matnining lingvomadaniy xususiyatlari va ularning kognitiv belgilari o‘z ifodasini topdi. Til va madaniyat - har ikkisining bir-birini to‘dirib turuvchi funksiyasi tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik sohasi doirasida tadqiq qilinib, yana bir bor ilmiy isbotlandi. Madaniyatning tilda aks etishining asoslab berilishi, maqolaning mazmun-mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.
2. Қаранг: Нурмонов А Оврүпода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланганасарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 2-жилд. – Б. 23-40; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамалтадқиқий ўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
3. Қаранг: Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 7. – 2004. – С. 238-243; Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
6. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.
7. Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: учеб. пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
9. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С . 25.
10. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
11. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. — Toshkent.: “Sanostandart” нашриёти, 2014. Хотиралар. Адабий ўйлар. 33-б
12. Шарафиддинов О. Домлар. — Тошкент.: «Маънавият», 2009. 162-б
13. Сен элимнинг юрагида яшайсан. (Хамид Олимжон ҳақида эсдаликлар). Зулфия таҳрири остида. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. 88-б